



ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO‘L” DRAMASIDA
INSONIYAT TAQDIRI MASALASI

Doniyorova Zebo Shamsiddin qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 203-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: N. Karimova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramasi insoniyatning ma‘naviy qiyofasi, axloqiy tanlovi va taqdiri masalasini falsafiy ruhda yorituvchi asarlardan biridir. Asarning asosiy obrazlari, ayniqsa, Yigit, Tarozibon, Ona va Hur qiz kabi personajlar tahlil qilinadi. Asarda diniy mifologik ramzlar - arosat, tarozi, farishtalar, jannat va do‘zax orqali zamonaviy ijtimoiy-axloqiy muammolar, adolatsizlik, hasad, vijdotsizlik, shaxsiy va ijtimoiy javobgarlik fojiali va satirik tarzda ko‘tarilgan. Muallif insonning jannatga erishish yo‘li tashqi boylik yoki mavqeda emas, balki qalb pokligi, sabr-toqat va halollikda ekanini ta‘kidlaydi. Asar jamiyat taraqqiyoti, inson kelajagi ham avvalo axloqiy poklanish va ruhiy yuksalishga tayangan holda barqaror bo‘lishini badiiy-falsafiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, “Jannatga yo‘l” dramasi, insoniyat taqdiri, ma‘naviyat, axloqiy tanlov, ezgulik va yovuzlik, vijdon, adolat, ruhiy iztirob, ma‘naviy poklanish.

Annotation: This article discusses the drama “The Path to Heaven” by Abdulla Oripov, one of the works that illuminates the spiritual image, moral choice and destiny of humanity in a philosophical spirit. The main characters of the work, especially such characters as the Young Man, the Libra Man, the Mother and the Free Girl, are analyzed. The work tragically and satirically raises modern socio-moral problems, injustice, envy, dishonesty, personal and social responsibility through religious mythological symbols - the arasat, the scales, angels, heaven and



hell. The author emphasizes that the path to heaven for a person is not in external wealth or position, but in purity of heart, patience and honesty. The work substantiates the artistic and philosophical idea that the development of society and the future of man will be stable, first of all, based on moral purification and spiritual elevation.

Keywords: Abdulla Oripov, drama "The Path to Heaven", the fate of humanity, spirituality, moral choice, good and evil, conscience, justice, spiritual suffering, spiritual purification.

Аннотация: В данной статье рассматривается драма Абдуллы Орипова «Путь на небеса», одно из произведений, освещающих духовный образ, моральный выбор и судьбу человечества в философском духе. Анализируются главные герои произведения, в частности такие персонажи, как Молодой человек, Человек-Весы, Мать и Свободная девушка. Произведение трагически и сатирически поднимает современные социально-нравственные проблемы, несправедливость, зависть, нечестность, личную и социальную ответственность посредством религиозно-мифологических символов – арасата, весов, ангелов, рая и ада. Автор подчеркивает, что путь на небеса для человека лежит не во внешнем богатстве или положении, а в чистоте сердца, терпении и честности. Произведение обосновывает художественно-философскую идею о том, что развитие общества и будущее человека будет стабильным, прежде всего, на основе нравственного очищения и духовного возвышения.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, драма «Путь на небеса», судьба человечества, духовность, моральный выбор, добро и зло, совесть, справедливость, духовные страдания, духовное очищение.

Adabiyot inson qalbining aks-sadosi, jamiyat ma'naviyatining tarbiyachisidir. Ayniqsa, badiiy asarlar orqali axloqiy va falsafiy masalalarni yoritish ulug' adiblar ijodining muhim yo'nalishidir. Ana shunday ijodkorlardan biri — Abdulla Oripov. Uning "Jannatga yo'l" dostoni insoniyat uchun abadiy ahamiyatga



ega bo‘lgan ruhiy va ma’naviy qadriyatlar haqida chuqur mulohazalarga boy asardir. “Jannatga yo‘l” dostoni 1980-yilda ilk bor nashr etilgan bo‘lib, nazm va dramaturgiya janrlarining xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Asar fantastika yo‘nalishidagi afsonaviy-mifologik mavzu asosida yaratilgan.

Unda shoir o‘zini qiynagan ichki g‘alayonni, ruhiy iztirobni va jamiyatdagi ma’naviy inqiroz masalalarini ramziy timsollar orqali ifodalaydi.¹

Dostonning bosh qahramoni-Yigit obrazi inson timsolidir. Asar markazida turgan Yigit o‘zini pok va halol deb biladi, umrini san’atga, so‘zga va go‘zallikka bag‘ishlagan. Biroq oxirat tarozisida uning savoblari og‘ir kelmaydi. Sababi-u yovuzlikni ko‘rib turib, sukut saqlagan. Shoir bu obraz orqali shaxsiy vijdon va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi murakkab muvozanatni ko‘rsatadi. Yigitning o‘zini oqlashga urinishlari, ichki iztiroblari va Tarozibon bilan suhbatlari orqali inson ruhiyatidagi murakkablik, o‘zini anglash, tavba va kechirim masalalari ochib beriladi. Mening fikrimcha, aynan shu nuqta asarning eng og‘riqli va ta’sirli jihati deb o‘ylayman, chunki ko‘pchil insonlar ham ba’zan haqiqatni bila turib sukut saqlaymiz. Aynan mana shu obraz orqali har bir kishi o‘z hayotini tahlil qilishga harakat qiladi.

Tarozibon-dostonning eng falsafiy obrazidir. U insonning butun umr davomida qilgan amallarini o‘lchaydi. Ammo bu o‘lchov faqat tashqi amallargagina emas, balki niyat va mas’uliyatga ham bog‘liq. Tarozibon Yigitga: “Savoblaring kam, chunki sen jim turgan paytda zulmat kuchaydi”² deya eslatadi. Bu orqali shoir muhim xulosani ilgari suradi: inson adolatsizlikni ko‘rib sukut saqlasa, u ham ma’lum ma’noda gunohkor bo‘ladi. Asarda bevosita nomi tilga olinmagan bo‘lsa-da, “jamiyat obrazi” ham mavjud. Bu obraz hasadgo‘ylar, laganbardorlar, riyokorlar va manmanlikka berilgan insonlar timsolida namoyon bo‘ladi. Shoir ular orqali real hayotdagi illatlarni tanqid qiladi va o‘quvchini ogohlikka chorlaydi. Men bu obraz orqali shuni angladimki, har birimizni eng adolatli baholaydigan hakam-bu o‘z

¹ Абдулла Орипов таваллудининг 80 йиллиги кенг нишонланади.

“Mahalla” 2020 йил 4 декабрь.

² Oriпов A. Jannatga yo‘l. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.



qalbimizdir. Tarozi bonning yigitga bildirgan e'tirozlari o'quvchini chuqur o'yg'a toldiradi. Bu holat bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb, chunki jamiyat taraqqiyoti har birimizning faolligimizga bog'liq.

“Jannatga yo'l” satirik va dramatik ruhda yozilgan doston bo'lib, unda dialoglar, monologlar va sahnaviy tasvirlar muhim o'rin tutadi. Asarda diniy-mifologik ramzlardan vosita sifatida foydalangan:

Tarozi – adolat mezoni, insonning hayotiy o'lchovi;

Arosat – hayot bilan o'lim orasidagi maydon, vijdon sinovi;

Farishtalar – inson ruhining ichki ovozi;

Jannat va do'zax – mukofot va jazoning ramziy manzili.³

Drammadagi “Jannat” timsolini ma'naviy komillik va ruhiy yengillik deb hisoblasak bo'ladi. Haqiqiy jannat esa-bu pok vijdon bilan yashamoqdir.

Asarda o'limdan keyingi hayot, savol-javob va qiyomat manzaralari tasvirlansa-da, bular muallifning asl g'oyalarini yetkazish vositasidir. Shoir mifologik tasvirlar orqali real hayotdagi kamchiliklar, gunoh va illatlarni, ularning oqibatlarini o'ziga xos talqinda yoritadi. Asarda ezgulikni kechiktirmaslik, imkon qadar ko'proq savobli ishlar qilish zarurligi ta'kidlanadi. Drammada “Jannat” timsoli shunchaki oxirat manzili emas, balki insonning ma'naviy komillikka erishish yo'lini anglatadi. Muallif insoniyat taqdiri tashqi kuchlarga emas, avvalo insonning o'z qalbi, iymoni va vijdoniga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Adarning yana bir ahamiyati shundan iboratki, undagi tanqid faqat bir davrga emas, balki barcha zamonlarga tegishlidir. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ichki kurashlari orqali hayot mazmunini anglash jarayoni tasvirlanadi. Ularning har biri o'z tanlovi bilan nafaqat shaxsiy taqdirini, balki umumiy insoniy qadriyatlar istiqbolini ham belgilaydi. Insoniyat kelajagi ma'naviy uyg'onish, adolat va poklanishga tayanadi. Asarda

³ <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933294>



gunoh va savob, adolat va zulm, sadoqat va xiyonat o'rtasidagi kurash badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Shoir qahramon obrazida butun insoniyat taqdirini, har bir inson qalbidagi azob-uqubat va izlanishlarni mujassamlashtiradi. Yigitga yo'lboshchi bo'lib uchraydigan farishta hamda yo'l ustidagi sinovlar inson ma'naviyatidagi shubha va imon, umid va qo'rquv o'rtasidagi ichki tortishuvlarning ramziy ifodasidir. Har bir sahna orqali muallif axloqiy saboq beradi: inson o'z hayotidan xulosa chiqarmasa, u hech qachon haqiqiy jannat — ya'ni ruhiy yengillik va najot sari yeta olmaydi.⁴

Dostonning eng muhim falsafiy g'oyalaridan biri — tavba va kechirim masalasidir. Shoir insonni faqat gunohkor mavjudot sifatida emas, balki poklanishga intilayotgan zot sifatida tasvirlaydi. Islomiy axloqning muhim tushunchasi bo'lgan tavba ulug'lanadi. Asarda “Tavba qilgan bandani Alloh kechiradi, demak har bir kishi uchun najot yo'li ochiq” degan g'oya ustuvorlik qiladi.⁵ Tavba qilish, xatoni anglash va uni tuzatishga intilish najot yo'lidir. Muallif insonni umidsizlikka tushirishni emas, aksincha, unga umid va imkon berishni maqsad qilgan. Har bir inson o'z hayotini o'zgartirish qudratiga ega.

Xulosa qilib aytganda, “Jannatga yo'l” dramasi insoniyat taqdiri haqida chuqur falsafiy mushohada yurituvchi asardir. Unda insonning vijdoni, iymoni va jasorati jamiyat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Muallifning fikricha, agar inson qalban poklanib, adolat yo'lini tanlasa, jamiyat ham sog'lom va barqaror rivojlanadi. Asar o'quvchini befarqlikdan voz kechishga, ma'naviy yuksalishga va o'z hayoti uchun mas'uliyatni his etishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Орипов таваллудининг 80 йиллиги кенг нишонланади. “Mahalla” 2020 йил 4 декабрь.
2. Oripov A. Jannatga yo'l. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.

⁴ Oripov A. Jannatga yo'l. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.

⁵ O'zbekiston adabiyotidagi falsafiy va satirik dostonlar haqida maqolalar to'plami. – Toshkent: Fan, 1994.



3. O‘zbekiston adabiyotidagi falsafiy va satirik dostonlar haqida maqolalar to‘plami.

– Toshkent:

Fan, 1994.

Internet manbasi:

4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933294>